

**Азиза ШОКИРОВА**

# Ҳихоҳ

*Шеърлар*

МАЖБУРИЙ НУСХА

**ТОШКЕНТ  
«ИСТИҚЛОЛ»  
2013**

УЎК: 821.512.133-1  
КВК: 84(5Ў)7 - *У.Б. араб*  
Ш 75

84(5Ў)7 Шокирова, Азиза.  
Ш 75 Ниҳол: шеърлар / А.Шокирова. — Тошкент:  
Istiqlof, 2013. — 80 б.

*Ёш қаламкаш ўз шеърларида киндик қони тўкилган  
Ватанини, она табиатни, меҳрибон ота-оналари, устозлари,  
тенгдошлари, сеvimли укаларини ўзгача меҳр билан куйлайди.  
Мурғак қалбидан отилиб чиққан илҳомбахш сўзлардан  
маржондек сатрлар тизади. Ўзига хос услубда баён этишга  
интилади. Буларнинг барчаси ундаги истеъдоддан дарак беради.  
Улар сизда ҳам илиқ таассурот қолдиради, деб ўйлаймиз.*

УЎК: 821.512.133-1  
КВК: 84(5Ў)7

*42323*  
*10 0*

© «Istiqlof nashriyoti», 2013

ISBN 978-9943-308-86-2	niy
2013/14	nemidagi
A	O'zbekiston MK
1464	



## АЗИЗАНИНГ ГУЛ СЎЗЛАРИ

Ижодкор ёш жиҳатидан катта ё кичик бўлиши мумкин, аммо унинг ижоди қанчалик санъат талабларига жавоб бера олиши, руҳий ҳолат уйғотиб, одамга маънавий завқ бағишлаши лозим. Шунда унинг сўзи атиргулдек ифорли бўлади. Азизанинг машқларидан ана шундай ифор таралади.

*Кун келиб мен ҳали бир қиз бўламан,  
Халқ учун порловчи юлдуз бўламан.  
Камарбаста бўлиб, кундуз бўламан,  
Бахтимнинг эшиги Ўзбекистоним!*

Ёшгина қизалоқ Азизанинг сўзларни бундай моҳирона қўллашга интилиб, Ватанга муҳаббатини изҳор қилиши кишини қувонтиради. У нарса ва ҳодисаларга завқ-шавқ билан қарайди, улардан назм дурдоналари теришга ҳаракат қилади.

*Ватаним тупроғин суртиб кўзимга,  
Юрак туйғуларим жамлаб сўзимга,  
Бир каломни шиор қилдим ўзимга:  
Йўлларингга гуллар тўшайин Ватан!  
Иқболингга ҳисса қўшайин Ватан!*

Юраги эл-юртга меҳр-муҳаббат билан тўлган Азиза комил ижодкор бўлиши учун жуда кўп ўқиб ўрганиши, ҳали халқ хазинасидан, буюк устозлар асарларидан баҳраманд бўлиб, машқдан машққа ўсиб бориши керак. Уйлайманки, у бундай машаққатдан кўрқмайди, эзгу йўлдан дадил интилаверади. Бу борада унга оқ йўл тилаймиз!

*Туроб Мақсуд,  
Ёзувчилар уюшмаси Жиззах вилоят бўлими раҳбари*

## ЎЗБЕКИСТОНИМ

*Буюкларга бешик бўлган маконим,  
Сен менинг борлигим, сен шараф-шоним,  
Энг буюк орзулар сенда мужассам,  
Бахтимнинг эшиги Ўзбекистоним!*

*Хуснингга зеб берар азим чинорлар,  
Таърифингга сўз йўқ ёзсам ашъорлар,  
Бағрингда саховат қуёши порлар,  
Бахтимнинг эшиги Ўзбекистоним!*

*Ҳар қадамда наво, янграйди оҳанг,  
Манзаранг-ла жаннат бўлар ҳамоҳанг,  
Дўстлар учун қучоғинг ҳам очиқ ланг,  
Бахтимнинг эшиги Ўзбекистоним!*

*Буюкларнинг руҳи қўллайди бизни,  
Ёруғ йўллар томон йўллайди бизни,  
Юртбошим қўллайди ҳар биримизни,  
Бахтимнинг эшиги Ўзбекистоним!*

*Нуроний боболар дуоси бисёр,  
Иболи момолар дуоси бисёр,  
Ўзбекнинг уйидан узилмас ёр-ёр,  
Бахтимнинг эшиги Ўзбекистоним!*

*Кун келиб мен ҳали бир қиз бўламан,  
Халқ учун порловчи юлдуз бўламан,  
Камарбаста бўлиб, кундуз бўламан,  
Бахтимнинг эшиги Ўзбекистоним!*

*Буюкларга бешик бўлган маконим,  
Сен менинг борлигим, сен шараф-шоним,  
Энг гўзал ашъорим сенга битилган,  
Бахтимнинг эшиги Ўзбекистоним!*

## O'ZBEKISTONIM

*Buyuklarga beshik bo'lgan makonim,  
Sen mening borlig'im, sen sharaf-shonim,  
Eng buyuk orzular senda mujassam,  
Baxtimning eshigi O'zbekistonim!*

*Husningga zeb berar azim chinorlar,  
Ta'rifingga so'z yo'q yozsam ash'orlar,  
Bag'ringda saxovat quyoshi porlar,  
Baxtimning eshigi O'zbekistonim!*

*Har qadamda navo, yangraydi ohang,  
Manzarang-la jannat bo'lar hamohang,  
Do'stlar uchun quchog'ing ham ochiq lang,  
Baxtimning eshigi O'zbekistonim!*

*Buyuklarning ruhi qo'llaydi bizni,  
Yorug' yo'llar tomon yo'llaydi bizni,  
Yurtboshim qo'llaydi har birimizni,  
Baxtimning eshigi O'zbekistonim!*

*Nuroniylar bobolar duosi bisyor,  
Iboli momolar duosi bisyor,  
O'zbekning uyidan uzilmas yor-yor,  
Baxtimning eshigi O'zbekistonim!*

*Kun kelib men hali bir qiz bo'laman,  
Xalq uchun porlovchi yulduz bo'laman,  
Kamarbasta bo'lib, kunduz bo'laman,  
Baxtimning eshigi O'zbekistonim!*

*Buyuklarga beshik bo'lgan makonim,  
Sen mening borlig'im, sen sharaf-shonim,  
Eng go'zal ash'orim senga bitilgan,  
Baxtimning eshigi O'zbekistonim!*

## ОЗОД ВАТАНИМ

*Ватаним тупроғин суртиб кўзимга,  
Юрак туйғуларим жамлаб сўзимга,  
Бир каломни шиор қилдим ўзимга:  
Йўлларингга гуллар тўшайин Ватан!  
Иқболингга ҳисса қўшайин Ватан!*

*Юртлар кўп, лек Ватан танҳо, суюкдир,  
Ватан Она каби бағри куюкдир.  
Ватан яғонадир!  
Ватан буюкдир!  
Эзгулик бўстонин лолаларимиз,  
Шу азиз Ватаннинг болаларимиз!*

*Юрт обод, боғ-роғлар йўлларимизда,  
Гул битар ҳаттоки чўлларимизда.  
Келажак бизларнинг қўлларимизда,  
Эзгулик бўстонин лолаларимиз,  
Шу азиз Ватаннинг болаларимиз!*



## OZOD VATANIM

*Vatanim tuprog'in surtib ko'zimga,  
Yurak tuyg'ularim jamlab so'zimga.  
Bir kalomni shior qildim o'zimga:  
Yo'llaringga gullar to'shayin Vatan!  
Iqbolingga hissa qo'shayin Vatan!*

*Yurtlar ko'p, lek Vatan tanho, suyuqdir,  
Vatan Ona kabi bag'ri kuyukdir.  
Vatan yagonadir!  
Vatan buyukdir!  
Ezgulik bo'stonin lolalarimiz,  
Shu aziz Vatanning bolalarimiz!*

*Yurt obod, hog'-rog'lar yo'llarimizda,  
Gul bitar hattoki cho'llarimizda,  
Kelajak bizlarning qo'llarimizda,  
Ezgulik bo'stonin lolalarimiz,  
Shu aziz Vatanning bolalarimiz!*



## БАЙРОҚ

*Байроғим кўк рангида —  
Темур бобом шаъни бор.  
Еру кўкда ҳаётнинг,  
Рамзи ёнғай барқарор.*

*Унинг қизил рангида,  
Аждодлар қутлуғ шони.  
Ҳаёт риштасин севган,  
Мардларнинг оташ жони.*

*Оқ ранги бутун борлиқ,  
Оқлик — поклик рамзидир.  
Покликка содиқ қолмоқ,  
Биз, авлодлар фарзидир.*

*Яшил ранги бошлар юрт,  
Ям-яшил қирларига.  
Ошно этар юртимнинг,  
Серҳосил ерларига.*

*Унинг юлдуз, ойи бу —  
Булутсиз осмон эрур.  
Ун икки рақамлиги,  
Мукаммал бир сон эрур.*

*Юксакликда ҳилпираб,  
Порлайверсин доимо.  
Биз — ўзбеклар байроғин,  
Танисин бутун дунё!*



## BAYROQ

*Bayrog'im ko'k rangida —  
Temur bobom sha'ni bor.  
Yer-u ko'kda hayotning,  
Ramzi yongay barqaror.*

*Uning qizil rangida,  
Ajdodlar qutlug' shoni.  
Hayot rishtasin sevgan,  
Mardlarning otash joni.*

*Oq rangi butun horliq,  
Oqlik — poklik ramzidir.  
Poklikka sodiq qolmoq,  
Biz, avlodlar farzidir.*

*Yashil rangi boshlar yurt,  
Yam-yashil qirlariga.  
Oshno etar yurtimning,  
Serhosil yerlariga.*

*Uning yulduz, oyi bu —  
Bulutsiz osmon erur.  
O'n ikki raqamligi,  
Mukammal bir son erur.*

*Yuksaklikda hilpirab,  
Porlayversin doimo.  
Biz — o'zbeklar bayrog'in,  
Tanisin butun dunyo.*

## МУСТАҚИЛ ЎЗБЕКИСТОН

*Ватаним — Ўзбекистон,  
Юрагимда яшайсан.  
Эзгулик, юксалишга,  
Собит қадам ташлайсан.*

*Менинг азият Ватаним,  
Шоирларга мақомсан.  
Бог-роғлару бинолар,  
Кўркем жойларга консан.*

*Ўғлонларинг паҳлавон,  
Келбати тоғдай келар.  
Аскарларинг мард посбон,  
Доим хизматда елар.*

*Қизларинг бор — пазанда,  
Ўйнар ҳаё юзида.  
Она юртга муҳаббат,  
Порлаб турар кўзида.*

*Кўли гул Ватандошлар —  
Хунармандлар бор бўлсин.  
Чевар қиз, жувонларга,  
Бахту омад ёр бўлсин.*

*Меҳнаткаш халқ бағрингни,  
Ҳар куни айлар бўстон.  
Юракларда яшайсан,  
Мустақил Ўзбекистон.*

## MUSTAQIL O'ZBEKISTON

*Vatanim — O'zbekiston,  
Yuragimda yashaysan.  
Ezgulik, yuksalishga,  
Sobit qadam tashlaysan.*

*Mening aziz Vatanim,  
Shoirlarga maqomsan.  
Bog'-rog'lar-u binolar,  
Ko'rkam joylarga konsan.*

*O'g'lonlaring pahlavon,  
Kelbati tog' day kelar.  
Askarlaring mard posbon,  
Doim xizmatda yelar.*

*Qizlaring bor — pazanda,  
O'ynar hayo yuzida.  
Ona yurtga muhabbat,  
Porlab turar ko'zida.*

*Qo'li gul Vatandoshlar —  
Hunarmandlar bor bo'lsin.  
Chevar qiz, juvonlarga,  
Baxt-u omad yor bo'lsin.*

*Mehnatkash xalq bag'ringni,  
Har kuni aylar bo'ston.  
Yuraklarda yashaysan,  
Mustaqil O'zbekiston.*

## ТАШАККУР

*Ватан нелигини туйганман илк бор,  
Онамнинг сеҳрли аллаларида.  
Ватан нелигини туйганман илк бор,  
Баҳорнинг илк келган паллаларида.*

*Озодлик гаштини сурмоқда қушлар,  
Яшил майсалардан мавжланади ер.  
Она Ватанимни шундай яратган,  
Табиатнинг ўзи моҳир мусаввир.*

*Яшнаган диёрда ўқиб-ўрганиб,  
Билим боғларидан термоқдамиз дур.  
Ёниб куйлаяпман мадҳингни яна,  
Дилимда жўш урар ўзгача сурур.*

*Бекаму кўст ўсяпмиз биз ёш авлод,  
Шундай кунларимга минг бора шукр.  
Ҳар бир тинч кунимнинг бош сабабчиси  
Оқил Юртбошимиз, сизга ташаккур!*



## TASHAKKUR

*Vatan neligini tuyganman ilk bor,  
Onamning sehrli allalarida.  
Vatan neligini tuyganman ilk bor,  
Bahorning ilk kelgan pallalarida.*

*Ozodlik gashtini surmoqda qushlar,  
Yashil maysalardan mavjlanadi yer.  
Ona Vatanimni shunday yaratgan,  
Tabiatning o'zi mohir musavvir.*

*Yashnagan diyorda o'qib-o'rganib,  
Bilim bog'laridan termoqdamiz dur.  
Yonib kuylayapman madhingni yana,  
Dilimda jo'sh urar o'zgacha surur.*

*Bekam-u ko'st o'syapmiz biz yosh avlod,  
Shunday kunlarimga ming bora shukr.  
Har bir tinch kunimning bosh sababchisi  
Oqil Yurtboshimiz, sizga tashakkur!*



## БИЗ КИММИЗ?

*Биз киммиз? Пойига дунёлар ётган,  
Камонидан ўқмас, адолат отган,  
Халқнинг бахти учун кундаин ботган,  
Буюк Соҳибқирон авлодларимиз!*

*Биз киммиз? Туркий тилнинг асл ғурури,  
Ўзбек тупроғининг гавҳари, дури,  
Ҳар байтида қалқир Ватан сурури,  
Навобахш Навоий авлодларимиз!*

*Биз киммиз? Табобат эшигин очган,  
У бир-ла халқнинг ҳам дардлари қочган,  
Офтоб-ла давонинг нурларин сочган,  
Буюк Ибн Сино авлодларимиз!*

*Биз киммиз? Юлдузлар сирли султони,  
Барча илмларнинг қони ва жони,  
Темурий авлодин асл виждони,  
Мирзо Улуғбекнинг авлодларимиз!*



## BIZ KIMMIZ?

*Biz kimmiz? Poyiga dunyolar yotgan,  
Kamonidan o'qmas, adolat otgan,  
Xalqning baxti uchun kundayin botgan,  
Buyuk Sohibqiron avlodlarimiz!*

*Biz kimmiz? Turkiy tilning asl g'ururi,  
O'zbek tuprog'ining gavhari, duri,  
Har baytida qalqir Vatan sururi,  
Navobaxsh Navoiy avlodlarimiz!*

*Biz kimmiz? Tabobat eshigin ochgan,  
U bir-la xalqning ham dardlari qochgan,  
Oftob-la davoning nurlarin sochgan,  
Buyuk Ibn Sino avlodlarimiz!*

*Biz kimmiz? Yulduzlar sirli sultoni,  
Barcha ilmlarning qoni va joni,  
Temuriy avlodin asl vijdoni,  
Mirzo Ulug'bekning avlodlarimiz!*



## НАВОИЙ БОБОМ

*Шухратиға дунё бош эғди бугун,  
Қаламин шавқидан гуллади жаҳон.  
Мумтоз шеърятга олий тамаддун,  
Эзгу ниятлари яшайди ҳамон.*

*“Қуш тили”нинг моҳир таржимони у,  
Ёшлиқдан уйғонган илмга меҳр.  
“Туркий тил”нинг шуҳратин умрбод тиклаб  
Асрлар бағрига жо этган сеҳр.*

*Рухимни чулғайди ажиб ҳиссиёт,  
“Қаро кўзим”ини тинглаган онда.  
“Ҳамса”нинг ҳар сўзи завқни уйғотар,  
Фахр ва ифтихор мавж урар қонда.*

*“Ҳирот” томонлардан есган ҳур сабо,  
Қаранг, авлодларга комиллик тилар.  
Адолат ахтариб яшаган мудом,  
Навоий бобомга ўхшагим келар!*






## NAVOIY BOBOM

*Shuhratiga dunyo bosh egdi bugun,  
Qalamin shavqidan gulladi jahon.  
Mumtoz she'riyatga oliy tamaddun,  
Ezgu niyatlari yashaydi hamon.*

*"Qush tili"ning mohir tarjimoni u,  
Yoshlikdan uyg'ongan ilmga mehr.  
"Turkiy til"ning shuhratin umrbod tiklab,  
Asrlar bag'riga jo etgan sehr.*

*Ruhimni chulg'aydi ajib hissiyot,  
"Qaro ko'zim"ini tinglagan onda.  
"Hamsa"ning har so'zi zavqni uyg'otar,  
Faxr va iftixor mavj urar qonda.*

*"Hirof" tomonlardan esgan hur sabo,  
Qarang, avlodlarga komillik tilar.  
Adolat axtarib yashagan mudom,  
Navoiy bobomga o'xshagim kelar!*



## КОНСТИТУЦИЯ

*Қонунлар мажмуаси,  
Конституция китоби.  
Инсон ҳуқуқин оқлар,  
Келажакнинг офтоби.*

*Қонунга амал қилсак,  
Кўкда қуёш порлайди.  
Бу ҳуқуқлар бизларни,  
Камолотга чорлайди.*

*Ундаги моддаларнинг,  
Яхшиликдир негизи.  
Жиноят олдин олар,  
Конвенциянинг эгизи.*

*Ватан учун фидокор,  
Инсон бўлиш аҳдимиз.  
Бизга наф келтирувчи,  
Конституция — бахтимиз!*



## KONSTITUTSIYA

*Qonunlar majmuasi,  
Konstitutsiya kitobi.  
Inson huquqin oqlar,  
Kelajakning oftobi.*

*Qonunga amal qilsak,  
Ko'kda quyosh porlaydi.  
Bu huquqlar bizlarni,  
Kamolotga chorlaydi.*

*Undagi moddalarning,  
Yaxshilikdir negizi.  
Jinoyat oldin olar,  
Konvensiyaning egizi.*

*Vatan uchun fidokor,  
Inson bo'lish ahdimiz.  
Bizga naf keltiruvchi,  
Konstitutsiya — baxtimiz!*



## ОНА ТИЛИМ БУЮҚДИР

*Тилларга бой бу очун,  
Ҳаммаси ҳам суюқдир.  
Лек дўстларим менинг-чун,  
Она тилим буюқдир!*

*Унга суянгай элим,  
Ўшандан бурро тилим.  
Изланинг, олинг илм,  
Она тилим буюқдир!*

*Қийналди не-не зотлар,  
Оқланг азиз аждодлар —  
Ишончини, авлодлар!  
Она тилим буюқдир!*

*Яшангиз тавоф қилиб,  
Билимни азиз билиб,  
Асраб,  
Авайлаб,  
Елиб,  
Она тилим буюқдир!*



## ONA TILIM BUYUKDIR

*Tillarga boy bu ochun,  
Hammasi ham suyuqdir.  
Lek do'stlarim mening-chun,  
Ona tilim buyukdir!*

*Unga suyangay elim,  
O'shandan burro tilim.  
Izlaning, oling ilm,  
Ona tilim buyukdir!*

*Qiynaldi ne-ne zotlar,  
Oqlang aziz ajdodlar —  
Ishonchini, avlodlar!  
Ona tilim buyukdir!*

*Yashangiz tavof qilib,  
Bilimni aziz bilib,  
Asrab,  
Avaylab,  
Yelib,  
Ona tilim buyukdir!*



## БОБУР

*Шоҳлик юкин ортиб ўн бир ёшига,  
Ўзга юртга кетиб Ватандан йироқ.  
Маломат ёғилган шўрлик бошига,  
Шеър битиб аламин унутган озроқ.*

*Ўзи ёш бўлса-да эгаллаб тахтни,  
Болалик чоғида ғам-ғусса кўрган.  
Эл-юрт хизматига бой бериб бахтни,  
Барча синовларга мардона турган.*

*Элдан айрилганнинг кунлари ҳижрон,  
Унга муштоқ бўлар не қора кўзлар.  
Бугун Андижоннинг ранги заъфарон,  
Йўқотган боласин у ҳамон излар!*

## НИЛУФАР

*Шудринг тушиб юзига,  
Мисоли турар гавҳар.  
Бетакрор ва гўзалдир,  
Меҳр гули — нилуфар.*

*Қуёшда жиловланар,  
Гард юқтирмайди юзига.  
Нозик, гўзал кўринар,  
Гулсеварлар кўзига.*

## BOBUR

*Shohlik yukin ortib o'n bir yoshiga,  
O'zga yurtga ketib Vatandan yiroq.  
Malomat yog'ilgan sho'rlik boshiga,  
She'r bitib alamin unutgan ozroq.*

*O'zi yosh bo'lsa-da egallab taxtni,  
Bolalik chog'ida g'am-g'ussa ko'rgan.  
El-yurt xizmatiga boy berib baxtni,  
Barcha sinovlarga mardona turgan.*

*Eldan ayrilganning kunlari hijron,  
Unga mushtoq bo'lar ne qora ko'zlar.  
Balki Andijonning rangi za'faron,  
Yo'qotgan bolasin u hamon izlar!*

## NILUFAR

*Shudring tushib yuziga,  
Misoli turar gavhar.  
Betakror va go'zaldir,  
Mehr guli — nilufar.*

*Quyoshda jilovlanar,  
Gard yuqtirmaydi yuziga.  
Nozik, go'zal ko'rinar,  
Gulsevarlar ko'ziga.*

## ТАБРИК

(Бағишлов)

*Салом азизларим, қариндошларим,  
Дийдорингиз шоир юракка малҳам.  
Йиғилдик бир давра, битта дастурхон,  
Ўртада меҳрни бўлишиб баҳам.*

*Бобожон, сиз учун сўзларим бисёр,  
Бахт ва тинчлик сизга бўлсин доим ёр.  
Бугун 60 йиллик таваллудингиз,  
Сизга набиралик бизга ифтихор!*

*Бувижоним!  
Ойдин юзли фариштам,  
Сиз борсиз файзларга тўла уйимиз.  
Қутлуғ ёш муборак, мунис, сариштам,  
Бахтимиз посбони фақат ўзингиз.*

*Укам Дониёр-у ҳамда Илёсжон,  
Опалари учун доим меҳрибон.  
Бахтингиз барқарор бўлсин ҳар доим,  
Ватан ўғлонлари ботир, паҳлавон.*

*Жажжи укаларим Сардор, Шарофжон,  
Сизга қутловларим дилим тубидан.  
Сизга тилакларим: бўлинг соғ-омон,  
Жонингизга озор етмасин ҳеч ҳам!*



## TABRIK

(Bag'ishlov)

*Salom azizlarim, qarindoshlarim,  
Diydoringiz shoir yurakka malham.  
Yig'ildik bir davra, bitta dasturxon,  
O'rtada mehrni bo'lishib baham.*

*Bobojon, siz uchun so'zlarim bisyor,  
Baxt va tinchlik sizga bo'lsin doim yor.  
Bugun 60 yillik tavalludingiz,  
Sizga nabiralik bizga iftixor.*

*Buvijonim!  
Oydin yuzli farishtam,  
Siz borsiz fayzlarga to'la uyimiz.  
Qutlug' yosh muborak, munis, sarishtam,  
Baxtimiz posboni faqat o'zingiz.*

*Ukalarim Doniyor-u hamda Ilyosjon,  
Opalari uchun doim mehribon.  
Baxtingiz barqaror bo'lsin har doim,  
Vatan o'g'lonlari botir, pahlavon.*

*Jajji ukalarim Sardor, Sharofjon,  
Sizga qutlovlarim dilim tubidan.  
Sizga tilaklarim: bo'ling sog'-omon,  
Joningizga ozor yetmasin hech ham!*

## ЯНГИ ЙИЛ

Оламга зеб бериб келди янги йил,  
Юртимизга қишнинг шавкатин солиб.  
Дарахтларга илиб олмос беланчак,  
Аёзли ва гўзал кунларни олиб.

Ойнинг шуғласида ястаниб турар,  
Арча тепасида уфқнинг юлдузи.  
Унга безак берган биллур шарчалар,  
Бу арча гўёки ернинг кундузи.

Янги йил шукуҳи оламда кезар,  
Оқ отда аскарча безар арчани.  
Вафодор отини қучоқлаб туриб,  
Арча атрофига чорлар барчани.

Тарновдан тушганда ҳар битта томчи,  
Чироқнинг нурида ялтираб турар.  
Барча болаларга совға улашиб,  
Учар буғуларда Қорбобо юрар!

Ўрмон четидаги каттакон айиқ,  
Янги йил кутади уйда туриб.  
Барча ҳайвонларни чорлар байрамга,  
Байрам столида қувнаб ўтириб.

Оламга тароват бахш этар ором,  
Тўлиб кетар нафис покликка кўнгил.  
Нафис тилакларим жам бўлган оқшом,  
Софлик рамзи бўлган оппоқ Янги йил!

## YANGI YIL

*Olamga zeb berib keldi yangi yil,  
Yurtimizga qishning shavkatin solib.  
Daraxtlarga ilib olmos belanchak,  
Ayoqli va go'zal kunlarni olib.*

*Oyning shu'lasida yastanib turar,  
Archa tepasida ufqning yulduzi.  
Unga bezak bergan billur sharchalar,  
Bu archa go'yoki yerning kunduzi.*

*Yangi yil shukuhi olamda kezar,  
Oq otda askarcha bezar archani.  
Vafodor otini quchoqlab turib,  
Archa atrofiga chorlar barchani.*

*Tarnovdan tushganda har bitta tomchi,  
Chiroqning nurida yaltirab turar.  
Barcha bolalarga sovg'a ulashib,  
Uchar bug'ularda Qorbobo yurar!*

*O'rmon chetidagi kattakon ayiq,  
Yangi yil kutadi uyida turib.  
Barcha hayvonlarni chorlar bayramga,  
Bayram stolida qavnab o'tirib.*

*Olamga tarovat baxsh etar orom,  
To'lib ketar nafis poklikka ko'ngil.  
Nafis tilaklarim jam bo'lgan oqshom,  
Soflik ramzi bo'lgan oppoq Yangi yil!*

## НАВРЎЗ

*Эрталаб чиқиб қуёш,  
Кўк бағрига қўйди бош.  
Кўкда қушлар сайрайди,  
Эшитиб дил яйрайди.*

*Борлиқ ҳам сўз очади,  
Уйқудан кўз очади.  
Баҳоройнинг элчиси,  
Юракларнинг куйчиси.*

*Чиқди ажойиб чечак,  
Номи гўзал – бойчечак.  
Қозонларда сумалак,  
Ковлайди етти малак.*

*Сумалак ҳам пишибди,  
Косаларга тушибди.  
Хуллас, бу, айтсам шу дам,  
Шунақа тенгсиз байрам.*



## NAVRO'Z

*Ertalab chiqib quyosh,  
Ko'k bag'riga qo'ydi bosh.  
Ko'kda qushlar sayraydi,  
Eshitib dil yayraydi.*

*Borliq ham so'z ochadi,  
Uyqudan ko'z ochadi.  
Bahoroyning elchisi,  
Yuraklarning kuychisi.*

*Chiqdi ajoyib chechak,  
Nomi go'zal — boychechak.  
Qozonlarda sumalak,  
Kovlaydi yetti malak.*

*Sumalak ham pishibdi,  
Kosalarga tushibdi.  
Xullas, bu, aytsam shu dam,  
Shunaqa tengsiz bayram.*



## ОНАМ

*Боқиб мунис қиёфасига,  
Кўзларин нурига тўймайман.  
Қай сабаб-ла узоқда бўлсам,  
Мен фақат онамни ўйлайман.*

*Юзларини оҳиста силаб,  
Эсар доим шаббодалар ҳам.  
Майин йўлларига сув сепар ҳатто,  
Кўҳна азим сардобалар ҳам.*

*Мен онамни севаман беҳад,  
Юракда бор ҳисларни қўшиб.  
Шеърлар ёзиб, ғазаллар ёзиб,  
Мадҳ этаман меҳр-ла жўшиб.*

*Уни қанча мақтасам ҳамки,  
Дил изҳорим адо бўлмайди.  
Чунки, онам дунёда тенгсиз,  
Онамсиз ҳеч кўнглим тўлмайди.*



## ONAM

*Boqib munis qiyofasiga,  
Ko'zlarin nuriga to'ymayman.  
Qay sabab-la uzoqda bo'lsam,  
Men faqat onamni o'ylayman.*

*Yuzlarini ohista silab,  
Esar doim shabbodalar ham.  
Mayin yo'llariga suv separ hatto,  
Ko'hna azim sardobalar ham.*

*Men onamni sevaman behad,  
Yurakda bor hislarni qo'shib.  
She'rlar yozib, g'azallar yozib,  
Madh etaman mehr-la jo'shib.*

*Uni qancha maqtasam hamki,  
Dil izhorim ado bo'lmaydi.  
Chunki, onam dunyoda tengsiz,  
Onamsiz hech ko'nglim to'lmaydi.*



## ЎЗБЕКИСТОН ФАРЗАНДЛАРИМИЗ

*Тарихингдан сўз очса кимдир,  
Титраб кетар бутун қалб, танам.  
Сўзлаб берса барини шу чоқ,  
Пайдо бўлур кўзларимда нам.*

*Ҳайбатлидир тоғлар ҳар бири,  
Бизнинг боғлар меваларга кон.  
Киндик қоним тўкилган замин,  
Ўзбекистон — жаннатли макон.*

*Темурийлар авлодиданмиз,  
Навоийнинг дилбандларимиз.  
Қайга борсак айтиб юрамиз:  
“Ўзбекистон фарзандларимиз”.*

### ЛОЛАҚИЗҒАЛДОҚ

*Нозик вужудингни шаббода силар,  
Аста тебранасан, лолақизғалдоқ.  
Тик тоғлару гўзал адирлар бўйлаб,  
Офтобда товланиб биз томонга боқ.*

*Ёқут гултожларинг тебранишидан,  
Юракларга ажиб илҳом таралар.  
Гўзалликка ташна инсониятнинг,  
Бутун нигоҳлари сенга қадалар.*

*Нафис гунчаларинг, япроқларинг-ла,  
Узоқ-узоқлардан бизларга қўл қоқ.  
Биз ҳам қўл қоқайлик қувноқ ва шодон,  
Бунча гўзалдурсан, лолақизғалдоқ!*



## O'ZBEKISTON FARZANDLARIMIZ

*Tarixingdan so'z ochsa kimdir,  
Titrab ketar butun qalb, tanam.  
So'zlab bersa barini shu choq,  
Paydo bo'lur ko'zlarimda nam.*

*Haybatlidir tog'lar har biri,  
Bizning bog'lar mevalarga kon.  
Kindik qonim to'kilgan zamin,  
O'zbekiston – jannatli makon.*

*Temuriylar avlodidanmiz,  
Navoiyning dilbandlarimiz.  
Qayga borsak aytib yuramiz:  
"O'zbekiston farzandlarimiz".*

### LOLAQIZG'ALDOQ

*Nozik vujudingni shabboda silar,  
Asta tebranasan, lolaqizg'aldoq.  
Tik tog'lar-u go'zal adirlar bo'ylab,  
Oftobda tovlanib biz tomonga boq.*

*Yoqut gultojlaring tebranishidan,  
Yuraklarga ajib ilhom taralar.  
Go'zallikka tashna insoniyatning,  
Butun nigohlari senga qadalar.*

*Nafis g'unchalaring, yaproqlaring-la,  
Uzoq-uzoqlardan bizlarga qo'l qoq.  
Biz ham qo'l qoqaylik quvnoq va shodon,  
Buncha go'zaldursan, lolaqizg'aldoq!*

## БОБОЖОНИМ, БУВИЖОНИМ

*Бобожоним Шокиржон,  
Подполковник бўлганлар.  
Эл-юрт тинчлигин кўзлаб,  
Хизмат қилиб юрганлар.*

*Бувижоним Раҳбарой,  
Зўр тикувчи бўлганлар.  
Эл учун кўйлак тикиб,  
Доим завққа тўлганлар.*

*Бобожон, бувижоним,  
Сизлар менинг паноҳим.  
Соғ бўлинг бахтимизга,  
Юрт қўйнида илоҳим.*

## ОРЗУ

*Самоларда учаман,  
Булутларни қучаман.  
Шеърят осмонида,  
Митти бир юлдузчаман.*

*Шеър ёзаман мен жўшиб,  
Олов меҳримни қўшиб.  
Бугун ой ҳам ёнимга,  
Самодан келгай тушиб.*

*Эл-юртим мададидан,  
Куч-қудратга тўламан.  
Ватаним улуғловчи,  
Шоира қиз бўламан.*

## BOBOJONIM, BUVIJONIM

*Bobojonim Shokirjon,  
Podpolkovnik bo'lganlar.  
El-yurt tinchligin ko'zlab,  
Xizmat qilib yurganlar.*

*Buvijonim Rahbaroy,  
Zo'r tikuvchi bo'lganlar.  
El uchun ko'ylak tikib,  
Doim zavqqa to'lganlar.*

*Bobojon, buvijonim,  
Sizlar mening panohim.  
Sog' bo'ling baxtimizga,  
Yurt qo'ynida ilohim.*

## ORZU

*Samolarda uchaman,  
Bulutlarni quchaman.  
She'riyat osmonida,  
Mitti bir yulduzchaman.*

*She'r yozaman men jo'shib,  
Olov mehrimni qo'shib.  
Bugun oy ham yonimga,  
Samodan kelgay tushib.*

*El-yurtim madadidan,  
Kuch-qudratga to'laman.  
Vatanim ulug'lovchi,  
Shoira qiz bo'laman.*

## УСТОЗИМ

*Устозим, меҳрингиз тафтидан,  
Эзгулик нурлари таралар.  
Сўзингиз зўр оҳанг касб этиб,  
Истиқбол куйлари яралар.*

*Заҳматкаш боғбонсиз, устозим,  
Биз учун эҳсондир мевангиз.  
Суронли дунёда ҳеч қачон,  
Бошингиз ташвишга эгмангиз.*

*Мактаб — биз учун энг муқаддас,  
Қучоғи бахт билан тенг даргоҳ.  
Беқиёс Ватаним бағрида,  
Маккадай мўътабар саждагоҳ.*

*Сиздан биз бир умр миннатдор,  
Бош эгиб қиламиз жим таъзим.  
Биздаги дил деган диёрда,  
Сиз қурган ҳур йўллар кўп азим.*



## USTOZIM

*Ustozim, mehringiz taftidan,  
Ezgulik nurlari taralar.  
So'zingiz zo'r ohang kasb etib,  
Istiqbol kuylari yaralar.*

*Zahmatkash bog'bonsiz, ustozim,  
Biz uchun ehsondir mevangiz.  
Suronli dunyoda hech qachon,  
Boshingiz tashvishga egmangiz.*

*Maktab — biz uchun eng muqaddas,  
Quchog'i baxt bilan teng dargoh.  
Beqiyos Vatanim bag'rida,  
Makkaday mo'tabar sajdagoh.*

*Sizdan biz bir umr minnatdor,  
Bosh egib qilamiz jim ta'zim.  
Bizdagi dil degan diyorda,  
Siz qurgan hur yo'llar ko'p azim.*



## МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИ

*Қатоғон йилларида,  
Шаҳид бўлган Усмонжон<sup>1</sup>.  
Мўътабар, пок шеърларин,  
Такрорлайди халқ ҳамон.*

*Олдин бизга эркинлик,  
Нур эшиги эди берк.  
Шу фидойи жонлардан,  
Бизга насиб бўлди эрк.*

*Байроғимиз қўлдадир,  
Эркимиз ўзимизда.  
Ҳаётдан шод, мамнунлик,  
Порлайди кўзимизда.*

*Бу шарафли онларни,  
Унутмаслик бизга хос.  
Мустақиллик йилларин,  
Қадри чиндан беқиёс.*



---

<sup>1</sup> Усмон Носир назарда тутилмоқда.

## MUSTAQILLIK YILLARI

*Qatog'on yillarida,  
Shahid bo'lgan Usmonjon<sup>1</sup>.  
Mo'tabar, pok she'rlarin,  
Takrorlaydi xalq hamon.*

*Oldin bizga erkinlik,  
Nur eshigi edi berk.  
Shu fidoyi jonlardan,  
Bizga nasib bo'ldi erk.*

*Bayrog'imiz qo'ldadir,  
Erkimiz o'zimizda.  
Hayotdan shod, mamnunlik,  
Porlaydi ko'zimizda.*

*Bu sharaflı onlarni,  
Unutmaslik bizga xos.  
Mustaqillik yillarin,  
Qadri chindan beqiyos.*



---

<sup>1</sup> Usmon Nosir nazarda tutilmoqda.

## “ОЛТИН ОЛМА, ДУО ОЛ”

*Тилинг бўлсин доим бол,  
Фақат бўлгин сен ҳалол,  
Бу беш кунлик дунёда,  
Олтин олма, дуо ол!*

*Ҳар бир қилган ишингга,  
Мушкул бир юмушингга,  
Ёқмаса ҳам ҳушингга,  
Олтин олма, дуо ол!*

*Устун қўйма ўз жонни,  
Ўртоқ билма бўҳтонни,  
Қалбингдан юл тиконни,  
Олтин олма, дуо ол!*

*Ғафлатда қолма зинҳор,  
Элингга бўл кўзтумор,  
Бўлмай десанг хору зор,  
Олтин олма, дуо ол!*

*Белбоғинг боғла маҳкам,  
Вақтдир энг олий ҳакам,  
Бўлмайди ҳеч кўсту кам,  
Олтин олма, дуо ол!*





## “OLTIN OLMA, DUO OL”

*Tiling bo‘lsin doim bol,  
Faqat bo‘lgin sen halol,  
Bu besh kunlik dunyoda,  
Oltin olma, duo ol!*

*Har bir qilgan ishingga,  
Mushkul bir yumushingga,  
Yoqmasa ham hushingga,  
Oltin olma, duo ol!*

*Ustun qo‘yma o‘z jonni,  
O‘rtoq bilma bo‘htonni,  
Qalbingdan yul tikonni,  
Oltin olma, duo ol!*

*G‘aflatda qolma zinhor,  
Elingga bo‘l ko‘ztumor,  
Bo‘lmay desang xor-u zor,  
Oltin olma, duo ol!*

*Belbog‘ing hog‘la mahkam,  
Vaqtdir eng oliy hakam,  
Bo‘lmaydi hech ko‘st-u kam,  
Oltin olma, duo ol!*



Ўн фарзандни оқ ювиб,  
оқ тараган Шароф бобом ва  
Зебинисо бувим хотираларига

## ОҚИБАТ

*Халқ эртаклари оҳангида*

*Сўзлаб бермоқчи бўлган,  
Эртагимнинг маънисин.  
Албат ўргатар сизга,  
Оқибатнинг маъносин.*

*Опалари дастидан,  
Ўғай қизга хўп кулфат.  
Аммо доим бардошли,  
Давюрак қиз Адолат.*

*Энди бошдан сўзлайин,  
Гўзал бир ҳикояни.  
Оқибатга элтувчи,  
Олға қўйиб ғояни.*

*Икки она ва она,  
Кичик қизга ўғайдир.  
Уриб, савалаб уни,  
Эркини ҳам олгайдир.*

*Қиз ишларни бажарар,  
Меҳнатсевар, саришта.  
Барча қиздан ўтарди,  
Ҳар қандай мушкул ишда.*

*Қиз жуда ҳам истарди,  
Кўришни отасини.  
Жаннат ила яшовчи,  
Муштипар онасини.*

Уларни соғинганда,  
Оймомога боқарди.  
Унинг ҳар бир шуъласи,  
Қизчага хўп ёқарди.

Жониворлар унинг дўсти,  
Табиат-ла ҳамоҳанг.  
Қушларнинг навоси-ю,  
Ёқарди мунгли оҳанг.

Яна ўша таҳқирлаш,  
Уйига қайтганида.  
Онасидан чўчирди,  
Ҳар бир сўз айтганида.

Камчилик топиб ишдан,  
Ҳайдади она уни.  
Қизча қийналса-да лек,  
Кутмаганди ҳеч буни.

Ўрмон четидан юриб,  
Дарахтни кўриб қолди.  
Дарахтга суяниб у,  
Ўша ерда дам олди.

Ҳайратда қолди бирдан,  
Кўзини очганида.  
Айвончада уйғонди,  
Қуёш нур сочганида.

Оқ рўмолли бир кампир,  
Қошида кулиб турар.  
Сўлимгина бир боғда,  
Қушлар чуғурлаб юрар.

“Ассалому алайкум”,  
Салом берди кампирга.  
Дер: — “Нима бўлди қизим,  
Ҳожат йўқ ҳеч бир сирга”.

“Ҳолажон, ўгай онам,  
Ҳайдади мени уйдан.  
Узоқ юрдим, бошпана  
Тополмай кўча-кўйдан”.

Кампир дер: “Ундай бўлса,  
Уйимда меҳмон бўлгин.  
Тетик бўлиб соғайиб,  
Аввалдек кучга тўлгин”.

Қиз рози бўлиб кейин,  
Хурсандлигин билдирди.  
Кампир уни эркалаб,  
Қувонтириб, кулдирди.

Қизлар билан яшарди,  
Уйида бўлса она.  
Беозор бир қизчани,  
Ҳайдаганидан тона.

Лекин қизлар дангаса,  
Уйнинг аҳволи ёмон.  
Овқат қилишмасди ҳеч,  
Омон қолиш бегумон.

Афсусланди қизчани,  
Ҳайдаб юборганидан.  
Энди бўлса унинг ҳам,  
Қадрига етганидан.

*Дерди: “Қайтиб келганда,  
Қадрига етар эдим.  
У билан қизларимни,  
Меҳнатга элтар эдим”.*

*Ўтириб у эслади,  
Отанинг васиятин.  
У ҳеч ҳам ўйламаган,  
Ишининг хосиятин.*

*Қашшоқликда яшарди,  
Бир пайтлар ўгай она.  
Икки қиз етимликда,  
Ётишга йўқ бошпана.*

*Дайдиб юрган пайтида,  
Ота асраб олганди.  
Умрининг охиригача,  
Яхши қараб қолганди.*

*Ота ўлар чоғида,  
Қилган эди васият.  
Мендан сўнг хор бўлмасин,  
Гўзал қизим Адолат.*

*Қизча эса у ерда,  
Узоқ муддат яшади.  
Боғда ўтирганида,  
Кампирга сўз бошлади.*

*“Рози бўлинг холажсон,  
Соғиндим мен уйимни.  
Яна қайта тиклайин,  
Ўз ўрниму жойимни.*

Соғиндим жуда-жуда,  
Опаларим, онамни.  
Қанча кичик бўлса ҳам,  
Ўриндиг-у хонамни.

Рухсат беринг, кетайин,  
Ўгай онам ёнига.  
Юз буриб кетолмайман,  
Берган туз-у нонига“.

Кампир рози бўлиб сўнг,  
Тилади қизга оқ йўл.  
Қизча юртига етди,  
Босиб ўтиб дашт-у чўл.

Уйига етганида,  
Онаси чиқиб қолди.  
Кўриб хурсандлигидан,  
Бағрига босиб олди.

Хулосамиз, одамлар,  
Оқибат бутун бўлсин.  
Ҳамма бахтли бўлиб сўнг,  
Уйлар нурларга тўлсин.



*O'n farzandni oq yuvib,  
oq taragan Sharof bobom va  
Zebiniso buvim xotiralariga*

## **OQIBAT**

*Xalq ertaklari ohangida*

*So'zlab bermoqchi bo'lgan,  
Ertagimning ma'nisin.  
Albat o'rgatar sizga.  
Oqibatning ma'nosin*

*Opalari dastidan,  
O'gay qizga xo'p kulfat.  
Ammo doim bardoshli.  
Dovyyurak qiz Adolat.*

*Endi boshdan so'zlayin,  
Go'zal bir hikoyani.  
Oqibatga eltuvchi,  
Olg'a qo'yib g'oyani.*

*Ikki opa va ona,  
Kichik qizga o'gaydir.  
Urrib, savalab uni,  
Erkini ham olgaydir.*

*Qiz ishlarni bajarar,  
Mehnatsevar, sarishta.  
Barcha qizdan o'tardi,  
Har qanday mushkul ishda.*

*Qiz juda ham istardi,  
Ko'rishni otasini.  
Jannat ila yashovchi,  
Mushtipar onasini.*

*Ularni sog'inganda,  
Oymomoga boqardi.  
Uning har bir shu'lasi,  
Qizchaga xo'p yoqardi.*

*Jonivorlar uning do'sti,  
Tabiat-la hamohang.  
Qushlarning navosi-yu,  
Yoqardi mungli ohang.*

*Yana o'sha tahqirlash,  
Uyiga qaytganida.  
Onasidan cho'chirdi,  
Har bir so'z aytganida.*

*Kamchilik topib ishdan,  
Haydadi ona uni.  
Qizcha qiynalsa-da lek,  
Kutmagandi hech huni.*

*O'rmon chetidan yurib,  
Daraxtni ko'rib qoldi.  
Daraxtga suyanib u,  
O'sha yerda dam oldi.*

*Hayratda qoldi birdan,  
Ko'zini ochganida.  
Ayyonchada uyg'ondi,  
Quyosh nur sochganida.*

*Oq ro'molli bir kampir,  
Qoshida kulib turar.  
So'lingina bir bog'da,  
Qushlar chug'urlab yurar.*



*“Assalomu alaykum”,  
Salom berdi kampirga.  
Der: — “Nima bo‘ldi qizim,  
Hofat yo‘q hech bir sirga”.*

*“Xolajon, o‘gay onam,  
Haydadi meni uydan.  
Uzoq yurdim, boshpana  
Topolmay ko‘cha-ko‘ydan”.*

*Kampir der: “Unday bo‘lsa,  
Uyimda mehmon bo‘lgin.  
Tetik bo‘lib sog‘ayib,  
Avvaldek kuchga to‘lgin”.*

*Qiz rozi bo‘lib, keyin  
Xursandligin bildirdi.  
Kampir uni erkalab,  
Quvontirib, kuldirdi.*

*Qizlar bilan yashardi,  
Uyida bo‘lsa ona.  
Beozor bir qizchani,  
Haydaganidan tona.*

*Lekin qizlar dangasa,  
Uyning ahvoli yomon.  
Ovqat qilishmasdi hech,  
Omon qolish begumon.*

*Afsuslandi qizchani,  
Haydab yuborganidan.  
Endi bo‘lsa uning ham,  
Qadriga yetganidan.*

*Derdi: "Qaytib kelganda,  
Qadriga yetar edim.  
U bilan qizlarimni,  
Mehnatga eltar edim".*

*O'tirib u esladi,  
Otaning vasiyatini.  
U hech ham o'ylamagan,  
Ishining xosiyatini.*

*Qashshoqlikda yashardi,  
Bir paytlar o'gay ona.  
Ikki qiz yetimlikda,  
Yotishga yo'q boshpana.*

*Daydib yurgan paytida,  
Ota asrab olgandi.  
Umrining oxirigacha,  
Yaxshi qarab qolgandi.*

*Ota o'lar chog'ida,  
Qilgan edi vasiyat.  
Mendan so'ng xor bo'lmasin,  
Go'zal qizim Adolat.*

*Qizcha esa u yerda,  
Uzoq muddat yashadi.  
Bog'da o'tirganida,  
Kampirga so'z boshladi.*

*"Rozi bo'ling xolajon,  
Sog'indim men uyimni.  
Yana qayta tiklayin,  
O'z o'rnim-u joyimni.*

*Sog'indim juda-juda,  
Opalarim, onamni.  
Qancha kichik bo'lsa ham,  
O'rindig'-u xonamni.*

*Ruxsat bering, ketayin,  
O'gay onam yoniga.  
Yuz burib ketolmayman,  
Bergan tuz-u noniga“.*

*Kampir rozi bo'lib so'ng,  
Tiladi qizga oq yo'l.  
Qizcha yurtiga yetdi,  
Bosib o'tib dasht-u cho'l.*

*Uyiga yetganida,  
Onasi chiqib qoldi.  
Ko'rib xursandligidan,  
Bag'riga bosib oldi.*

*Xulosamiz, odamlar,  
Oqibat butun bo'lsin.  
Hamma baxtli bo'lib so'ng,  
Uylar nurlarga to'lsin.*



## АНҲОР

*Қишлоғимнинг гўзал боғидан,  
Оқиб ўтар мафтункор анҳор.  
Кенг бағрида осмон тимсоли,  
Гўё софлик каби беғубор.*

*Анҳорнинг четида майсазор,  
Лабларида мажнунтол ўсар.  
Бу гўзаллик менинг фикримда,  
Ёмонликнинг йўлини тўсар.*

*Кўнглим тубидаги дардимни,  
Юваётир шу гўзал анҳор.  
Шунданми, у мени ҳар куни,  
Қошига чорлайди такрору такрор.*

## БИРИНЧИ ҚЎНҒИРОҚ

*Мақтабимиз қутлайди бизни,  
Чалинганда қўнғироқ сози.  
Юракларда завқни уйғотар,  
Муаллимнинг майин овози.*

*Дилда қувонч, ҳаяжон билан,  
Синфимизга кирамиз аста.  
Ўтирамиз тинч ва осуда,  
Қулоқ солиб доимо дарсда.*

*Устозларнинг ишончин оқлаб,  
Интилгаймиз ўқиб доимо.  
Марраларга етайлик токи,  
Биз, ёшларни танисин дунё!*

## ANHOR

*Qishlog'imning go'zal bog'idan,  
Oqib o'tar maftunkor anhor.  
Keng bag'rida osmon timsoli,  
Go'yo soflik kabi beg'ubor.*

*Anhorning chetida maysazor,  
Lablarida majnuntol o'sar.  
Bu go'zallik mening fikrimda,  
Yomonlikning yo'lini to'sar.*

*Ko'nglim tubidagi dardimni,  
Yuvayotir shu go'zal anhor.  
Shundanmi, u meni har kuni,  
Qoshiga chorlaydi takror-u takror.*

## BIRINCHI QO'NG'IROQ

*Maktabimiz qutlaydi bizni,  
Chalinganda qo'ng'iroq sozi.  
Yuraklarda zavqni uyg'otar,  
Muallimning mayin ovozi.*

*Dilda quvonch, hayajon bilan,  
Sinfimizga kiramiz asta.  
O'tiramiz tinch va osuda,  
Quloq solib doimo darsda.*

*Ustozlarning ishonchin oqlab,  
Intilgaymiz o'qib doimo.  
Marralarga yetaylik toki,  
Biz, yoshlarni tanisin dunyo!*

## ЭРТАКЛАР

*Эртакларнинг кучини,  
Тан олган бутун дунё.  
Асли унинг негизи,  
Яхшиликдир доимо.*

*Ундаги қаҳрамонлар,  
Зумрад, Қиммат барчаси.  
Ёпилар ёмонликнинг,  
Эшиги-ю дарчаси.*

*Хулосамиз, эртаklar,  
Яхшиликка етаклар.  
Катталар сўзлаб берса,  
Қалбимиз нурга тўлар.*

## ҚЎҒИРЧОҚ

*Қўғирчоқ болаларни,  
Овунтирар, ўйнатар.  
Аслида уларнинг ҳам,  
Яшаш жойи эртаklar.*

*Қизиқувчан биз учун,  
Яхшидир қай ўйинчоқ.  
Синглимга энг яхшиси,  
Албатта бу — қўғирчоқ.*

*Биз қувноқ болаларга,  
Ёр бўлсин қўғирчоқлар.  
Эзгулик гулларига,  
Доим тўлсин қучоқлар.*

## ERTAKLAR

*Ertaklarning kuchini,  
Tan olgan butun dunyo.  
Asli uning negizi,  
Yaxshilikdir doimo.*

*Undagi qahramonlar,  
Zumrad, Qimmat barchasi.  
Yopilar yomonlikning,  
Eshigi-yu darchasi.*

*Xulosamiz, ertaklar,  
Yaxshilikka yetaklar.  
Kattalar so'zlab bersa,  
Qalbimiz nurga to'lar.*

## QO'G'IRCHOQ

*Qo'g'irchoq bolalarni,  
Ovuntirar, o'ynatar.  
Aslida ularning ham,  
Yashash joyi ertaklar.*

*Qiziquvchan biz uchun,  
Yaxshidir qay o'yinchoq.  
Singlimga eng yaxshisi,  
Albatta bu — qo'g'irchoq.*

*Biz quvnoq bolalarga,  
Yor bo'lsin qo'g'irchoqlar.  
Ezgulik gullariga,  
Doim to'lsin quchoqlar.*

## БОЛАЛИК

*Беғуборлик, шўхлик йўғрилган,  
Гўзал ўйлар, софлик — болалик.  
Ҳарир гулга ўраб қўйгандай,  
Гард юқмаган поклик — болалик.*

*Ширин ўйлар оғуши ила,  
Сайр этамиз баъзан самода.  
Яйраб, ўйнаб, қувнаймиз доим,  
Қушдек учиб доим фазода.*

*Булутлардек беғубор давр,  
Бу шундайин гулу лолалик.  
Ёш қалбимни тарк этмас ҳеч ҳам,  
Гўзал ўйлар, софлик — болалик.*

## УСТОЗ

*Китоб билан ҳамнафас,  
Биз, болалар доимо.  
Билим ўргатган устоз,  
Пойингиздадир дунё.*

*Онамизга ўхшабсиз,  
Меҳрингизни бердингиз.  
Тўғри йўлга етаклаб,  
Болангиздай кўрдингиз.*

*Бизга билим беришдан,  
Чарчаманг сиз ҳеч қачон.  
Ишончингиз оқлаймиз,  
Эй, меҳри дарё инсон.*



## BOLALIK

*Beg'uborlik, sho'xlik yo'g'rilgan,  
Go'zal o'ylar, soflik — bolalik.  
Harir gulga o'rab qo'yganday,  
Gard yuqmagan poklik — bolalik.*

*Shirin o'ylar og'ushi ila,  
Sayr etamiz ba'zan samoda.  
Yayrab, o'ynab, quvnaymiz doim,  
Qushdek uchib doim fazoda.*

*Bulutlardek beg'ubor davr,  
Bu shundayin gul-u lolalik.  
Yosh qalbimni tark etmas hech ham,  
Go'zal o'ylar, soflik — bolalik.*

## USTOZ

*Kitob bilan hamnafas,  
Biz, bolalar doimo.  
Bilim o'rgatgan ustoz,  
Poyingizdadir dunyo.*

*Onamizga o'xshabsiz,  
Mehringizni berdingiz.  
To'g'ri yo'lga yetaklab,  
Bolangizday ko'rdingiz.*

*Bizga bilim berishdan,  
Charchamang siz hech qachon.  
Ishonchingiz oqlaymiz,  
Ey, mehri daryo inson.*

## МАНЗАРА

*Майсаларнинг лабида  
Товланади шудринглар.  
Эрталаб қўнғироқдай,  
Гуё элда жиринглар.*

*Майин куйлар таралиб,  
Атроф чирой очади.  
Уфқдан бош кўтариб,  
Қуёш нурын сочади.*

*Тоғларда шуъла ўйнар  
Кўнгил яйраб қувонар.  
Мажнунтол салом бериб,  
Янги куним ўйғонар.*

*Кўкдаги оқ булутлар,  
Қанот боғлаб учишар.  
Қушлар ҳам чуғурлашиб,  
Мовий кўкни қучишар.*



## MANZARA

*Maysalarning labida  
Tovlanadi shudringlar.  
Ertalab qo'ng'iroqday,  
Go'yo elda jiringlar.*

*Mayin kuylar taralib,  
Atrof chiroy ochadi.  
Ufqdan bosh ko'tarib,  
Quyosh nurin sochadi.*

*Tog'larda shu'la o'ynar,  
Ko'ngil yayrab quvonar.  
Majnuntol salom berib,  
Yangi kunim uyg'onar.*

*Ko'kdagi oq bulutlar,  
Qanot bog'lab uchishar.  
Qushlar ham chug'urlashib,  
Moyiy ko'kni quchishar.*



## ҚОР ҚҰЙНИДАГИ ЛОЛА

Дарак бериб баҳордан,  
Қуёш чиқди чарақлаб.  
Мўътабар олам ранги,  
Кетди нурда ярақлаб.

Асрар эди ғунчасин,  
Ҳовлимизда лолалар.  
Очилишин кутардик,  
Ҳар куни биз, болалар.

Бу ахир, не кўргулик,  
Баҳор чоғи қор ёғса?  
Сувлар ҳам муз тўн кийиб,  
Маржон дурларин тақса?

Лолалар ҳам совқотиб,  
Қолди тагида қорнинг.  
Яна чиқди чарақлаб,  
Қуёши гул баҳорнинг.

Биз кутган дақиқалар,  
Етиб келди, дўстларим.  
Тўлиб борар қор кўчган.  
Лолаларга кўзларим.



## QOR QO'YNIDAGI LOLA

*Darak berib bahordan,  
Quyosh chiqdi charaqlab.  
Mo'tabar olam rangi,  
Ketdi nurda yaraqlab.*

*Asrar edi g'unchasin,  
Hovlimizda lolalar.  
Ochilishin kutardik,  
Har kuni biz, bolalar.*

*Bu axir, ne ko'rgulik,  
Bahor chog'i qor yog'sa?  
Suvlar ham muz to'n kiyib,  
Marjon durlarin taqsa?*

*Lolalar ham sovqotib,  
Qoldi tagida qorning.  
Yana chiqdi charaqlab,  
Quyoshi gul bahorning.*

*Biz kutgan daqiqalar,  
Yetib keldi, do'stlarim.  
To'lib borar qor ko'chgan.  
Lolalarga ko'zlarim.*



## ШИФОКОРЛАР

*Қайғуради доимо,  
Инсон ҳаёти учун.  
Англаб масъулиятни,  
Бажаради ўз бурчин.*

*“Оқ либосли халоскор”,  
Деб аташар одамлар.  
Ёрдамга шошилишар,  
Энг оғир, мушкул дамлар.*

*Бетоб бўлсак, танг ҳолда,  
Ётмаймиз хору абгор.  
Ёнимизда бор бўлса,  
Малҳам элтар шифокор.*

## КАМАЛАК

*Қуёш кулиб турганда,  
Булут қўлини қоқди.  
Бирдан ёмғир ёғди-ю,  
Камалак кулиб боқди.*

*Камалагим етти ранг,  
Етти тусда товланар.  
Ёрқин, нафис ранглар-ла,  
Қуёшда оловланар.*

*Камалакка тилагим:  
“Узоқ кетиб қолмагин.  
Биз болаларга шундай,  
Хизмат қилиб толмагин”.*

## SHIFOKORLAR

*Qayg'uradi doimo,  
Inson hayoti uchun.  
Anglab mas'uliyatni,  
Bajaradi o'z burchin.*

*"Oq libosli xaloskor",  
Deb atashar odamlar.  
Yordamga shoshilishar,  
Eng og'ir, mushkul damlar.*

*Betob bo'lsak, tang holda,  
Yotmaymiz xor-u abgor.  
Yonimizda bor bo'lsa,  
Malham eltar shifokor.*

## KAMALAK

*Quyosh kulib turganda,  
Bulut qo'lini qoqdi.  
Birdan yomg'ir yog'di-yu,  
Kamalak kulib boqdi.*

*Kamalagim yetti rang,  
Yetti tusda tovlanar.  
Yorqin, nafis ranglar-la,  
Quyoshda olovlanar.*

*Kamalakka tilagim:  
"Uzoq ketib qolmagin.  
Biz bolalarga shunday,  
Xizmat qilib tolmagin".*

## ТУЛКИ БИЛАН ҚУЁНЧА

*Айёргина тулкивой,  
Қуённи чув туширди.  
Дўст бўламиз деб унга,  
Айёрлигин оширди.*

*Қуён ишонди, тайин,  
Лаққиллатди бетайин.  
Бўлажак ўлжасин у,  
Авраб борар кун сайин.*

*Тулкивой охир бир кун,  
Еди қуён шўрликни.  
Кўринг алдов қоришган,  
Бундай пинҳон хўрликни.*

*Кўпни кўрган бу дунё,  
Кимга кенгу, кимга тор.  
Сиз ҳам бўлинг эҳтиёт,  
Қуёндай бўлманг зинҳор.*





## TULKI BILAN QUYONCHA

*Ayyorgina tulkivoy,  
Quyonni chuv tushirdi.  
Do'st bo'lamiz deb unga,  
Ayyorligin oshirdi.*

*Quyon ishondi, tayin,  
Laqqillatdi betayin.  
Bo'lajak o'ljasin u,  
Avrab borar kun sayin.*

*Tulkivoy oxir bir kun,  
Yedi quyon sho'rlikni.  
Ko'ring aldov qorishgan,  
Bunday pinhon xo'rlikni.*

*Ko'pni ko'rgan bu dunyo,  
Kimga keng-u, kimga tor.  
Siz ham bo'ling ehtiyot,  
Quyunday bo'lmang zinhor.*



## ИККИ ЭЧКИ БОЛАСИ

*Икки эчки боласи.  
Кимга айтсин носин,  
Ўгай она турткилаб,  
Кун бермайди тортқилаб.*

*Бундай мушкул оғир кун  
Зарур ҳимоя учун  
Доим ҳозир нозир  
Оталари йўқ ҳозир.*

*Шўринг қурғур эчкилар  
Бошида оғир кунлар  
Бугун улар ҳолига  
Йиғлар, ҳатто маймунлар.*

*Отанинг иши чиқиб,  
Ўтлоқларда қолибди.  
Мутлақо уйга келмай,  
Боласин ғам олибди.*

*Учинчи кун қайтиб у,  
Чек қўйди оҳ, нидога.  
Эчкиларнинг носиси,  
Етиб борди Худога.*



## IKKI ECHKI BOLASI

*Ikki echki bolasi,  
Kimga aytsin nolasin.  
O'gay ona turtkilab,  
Kun bermaydi tortqilab.*

*Bunday mushkul og'ir kun,  
Zarur himoya uchun.  
Doim hozir-u nozir,  
Otalari yo'q hozir.*

*Sho'ring qurg'ur echkilar,  
Boshida og'ir kunlar.  
Bugun ular holiga,  
Yig'lar, hatto maymunlar.*

*Otaning ishi chiqib,  
O'tloqlarda qolibdi.  
Mutlaqo uyga kelmay,  
Bolasin g'am olibdi.*

*Uchinchi kun qaytib u,  
Chek qo'ydi oh, nidoga.  
Echkilarning nolasi,  
Yetib bordi Xudoga.*



## УКАЖОНИМ

*Укажоним Илёсбек,  
Сен кераксан бизларга.  
Хислатларинг ўхшасин,  
Яхши ўғил-қизларга.*

*Ота-онам орзусин,  
Ушалтиргил сен албат.  
Сенга омад ёр бўлсин,  
Билимдан олгин мадад.*

*Спорт билан шуғуллан,  
Ол ғалаба нишонин.  
Элга содиқ фарзанд бул,  
Оширгин Ватан шонин.*



## UKAJONIM

*Ukajonim Ilyosbek,  
Sen keraksan bizlarga.  
Xislatlaring o'xshasin,  
Yaxshi o'g'il-qizlarga.*

*Ota-onam orzusin,  
Ushaltirgil sen albat.  
Senga omad yor bo'lsin,  
Bilimdan olgin madad.*

*Sport bilan shug'ullan,  
Ol g'alaba nishonin.  
Elga sodiq farzand bo'l,  
Oshirgin Vatan shonin.*



## ҲАШАР

*Кетаётиб биз йўлда,  
Бир кексани учратдик.  
Қулидан юкин олиб,  
Уйигача кузатдик.*

*Анҳордан ўтаётиб,  
Чиқиндини кўрдик биз.  
Ўша вақт, эндигина,  
Кирган эди кечки куз.*

*Бобо уни кўрганда,  
Анча аччиқландилар:  
“Дарҳол бунинг олдини,  
Олиш керак”, – дедилар.*

*Бориб раис олдига,  
Масалани ҳал қилдик.  
Ҳашарга элни чорлаб,  
Ҳаммани биз дўст билдик.*

*Тозалаб кўча-кўйни,  
Ишга тушди ўғил-қиз.  
Кўчалар тозаланиб,  
Анча дуо олдик биз.*



## HASHAR

*Ketayotib biz yo'lda,  
Bir keksani uchratdik.  
Qo'lidan yukin olib,  
Uyigacha kuzatdik.*

*Anhordan o'tayotib,  
Chiqindini ko'rdik biz.  
O'sha vaqt, endigina,  
Kirgan edi kechki kuz.*

*Bobo uni ko'rganda,  
Ancha achchiqlandilar:  
"Darhol buning oldini,  
Olish kerak", – dedilar.*

*Borib rais oldiga,  
Masalani hal qildik.  
Hasharga elni chorlab,  
Hammani biz do'st bildik.*

*Tozalab ko'cha-ko'yni,  
Ishga tushdi o'g'il-qiz.  
Ko'chalar tozalanib,  
Ancha duo oldik biz.*



## САМОЛЁТ

*Темир либос устида,  
Учади мисли бир қуш.  
Инсон кўргандай бўлар,  
Мисоли бир гўзал туш.*

*Самода учганида,  
На бир қанот қоқади.  
Жисмига кун гул каби,  
Нурларини тақади.*

*Эҳ, тенг бўлсам қанийди,  
Унга парвоз, шитобда.  
Дилдаги орзуларим,  
Шунда чиқар рўёбга.*





## SAMOLYOT

*Temir libos ustida,  
Uchadi misli bir qush.  
Inson ko'rganday bo'lar,  
Misoli bir go'zal tush.*

*Samoda uchganida,  
Na bir qanot qoqadi.  
Jismiga kun gul kabi,  
Nurlarini taqadi.*

*Eh, teng bo'lsam qaniydi,  
Unga parvoz, shitobda.  
Dildagi orzularim,  
Shunda chiqar ro'yobga.*



## ҚИШ

*Барча фасл ажойиб,  
Қиш ундан-да ғаройиб.  
Арчани хўп безатдик,  
Йил келишин тезлатдик.*

*Олға қадам ташлайди,  
Қорбобо “иш” бошлайди.  
Юракларни қилиб ром,  
Улашар совға-салом.*

*Муҳаббатга боғлаб дил,  
Кириб келар Янги йил.  
Қувонади азим Шарқ,  
Завққа тўлар бутун халқ.*



## QISH

*Barcha fasl ajoyib,  
Qish undan-da g'aroyib.  
Archani xo'p bezatdik,  
Yil kelishin tezlatdik.*

*Olg'a qadam tashlaydi,  
Qorbobo "ish" boshlaydi.  
Yuraklarni qilib rom,  
Ulashar sovg'a-salom.*

*Muhabbatga bog'lab dil,  
Kirib kelar Yangi yil.  
Quvonadi azim Sharq,  
Zavqqa to'lar butun xalq.*



## ТОРТИШУВ

— Мен Шерхонман, Шерхонман,  
Ўрмонда ўзим хонман.  
Курсам ўтхўр ҳайвонни,  
Ҳузурга элтгум жонни.

— Биз маймунлар зотидан,  
Шимпанзе авлодидан.  
Биттадир менинг сўзим,  
Сакроғич ҳайвон ўзим.

— Бизлар филлар бўламиз,  
Сувдан завққа тўламиз.  
Хартум зўр, йўқ муаммо,  
Думимиз қисқа аммо.

Бу давра — тортишувга,  
Қуён қўшилди аста.  
Бўри бир улаганди,  
Қочиб кетди бирпасда.



## TORTISHUV

— *Men Sherxonman, Sherxonman,  
O'rmonda o'zim xonman.  
Ko'rsam o'txo'r hayvonni,  
Huzurga eltgum jonni.*

— *Biz maymunlar zotidan,  
Shimpanze avlodidan.  
Bittadir mening so'zim,  
Sakrog'ich hayvon o'zim.*

— *Bizlar fillar bo'lamiz,  
Suvdan zavqqa to'lamiz.  
Xartum zo'r, yo'q muammo,  
Dumimiz qisqa ammo.*

*Bu davra — tortishuvga,  
Quyon qo'shildi asta.  
Bo'ri bir uvlagandi,  
Qochib ketdi birpasda.*



## МУНДАРИЖА

Азизанинг гул сўзлари .....	3
Ўзбекистоним .....	4
O'zbekistonim .....	5
Озод Ватаним .....	6
Ozod Vatanim .....	7
Байроқ .....	8
Ваугоқ .....	9
Мустақил Ўзбекистон .....	10
Mustaqil O'zbekiston .....	11
Ташаккур .....	12
Tashakkur .....	13
Биз киммиз? .....	14
Biz kimmiz? .....	15
Навоий бобом .....	16
Navoiy bobom .....	17
Конституция .....	18
Konstitutsiya .....	19
Она тилим буюкдир .....	20
Ona tilim buyukdir .....	21
Бобур .....	22
Нилуфар .....	22
Bobur .....	23
Nilufar .....	23
Табрик .....	24
Tabrik .....	25
Янги йил .....	26
Yangi yil .....	27
Наврўз .....	28
Navro'z .....	29
Онам .....	30
Onam .....	31
Ўзбекистон фарзандларимиз .....	32
Лолақизгалдоқ .....	32
O'zbekiston farzandlarimiz .....	33
Lolaqizg'aldoq .....	33
Бобожоним, бувижоним .....	34
Орзу .....	34
Bobojonim, buvijonim .....	35
Orzu .....	35
Устозим .....	36
Ustozim .....	37
Мустақиллик йиллари .....	38

Mustaqillik yillari .....	39
“Олтин олма, дуо ол” .....	40
“Oltin olma, duo ol” .....	41
Оқибат .....	42
Oqibat .....	47
Анҳор .....	52
Биринчи қўнғироқ .....	52
Anhor .....	53
Birinchi qo'ng'iroq .....	53
Эртақлар .....	54
Қўғирчоқ .....	54
Ertaklar .....	55
Qo'g'irchoq .....	55
Болалик .....	56
Устоз .....	56
Bolalik .....	57
Ustoz .....	57
Манзара .....	58
Manzara .....	59
Қор қўйнидаги лола .....	60
Qor qo'ynidagi lola .....	61
Шифокорлар .....	62
Камалак .....	62
Shifokorlar .....	63
Kamalak .....	63
Тулки билан қуёнча .....	64
Tulki bilan quyoncha .....	65
Икки эчки боласи .....	66
Ikki echki bolasi .....	67
Укажоним .....	68
Ukajonim .....	69
Ҳашар .....	70
Hashar .....	71
Самолёт .....	72
Samolyot .....	73
Қиш .....	74
Qish .....	75
Тортишув .....	76
Tortishuv .....	77

2800 с.м.

**Азиза ШОКИРОВА**

*Нихол*

*Шеърлар*

«ISTIQLOL» – Тошкент – 2013

*Муҳаррир*

*Рассом*

*Мусаҳҳиҳ*

*Саҳифаловчи*

*Ф. Раззоқова*

*Ҳ. Ёқубов*

*Н. Атабоева*

*С. Пулатова*

Лицензия рақами АІ № 217. 03.08.2012 й. Босишга рухсат этилди  
28.11.2013 й. Бичими 84×108<sup>1/32</sup>. Times Tad гарнитурасида. Шартли  
босма табоғи 5,0 б.т. Адади 100 нусха. Офсет қоғози. Буюртма  
№ 61.

«ISTIQLOL NASHRIYOTI», Тошкент ш., 100129, Навоий  
кўчаси, 30-уй. Тел: 244-94-36, факс 244-51-98. Эл. почта:  
rojpoligraf71@yahoo.com.

«ISTIQLOL NASHRIYOTI» матбаа бўлимида чоп этилди. Тош-  
кент ш., 100129, Навоий кўчаси, 30-уй.